



## BANK KAPITALIDA DEPOZITLARNING TUTGAN O'RNI

**Karimov Mardon Akram o'g'li –**

*assistent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

*Email: [mardon.karimov93@mail.ru](mailto:mardon.karimov93@mail.ru)*

*Tel: +99897 454-18-80*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bank kapitalining tuzilmasida depozitlarning o'rni, ular bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi roli, depozitlar turlari va ulardan samarali foydalanish strategiyalari yoritiladi. Maqola davomida bank faoliyati uchun depozitlarning iqtisodiy ahamiyati va ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Bank kapitali, depozitlar, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, depozit turlari, bank resurslari, iqtisodiy tahlil.

### МЕСТО ДЕПОЗИТОВ В КАПИТАЛЕ БАНКА

**Аннотация:** В статье рассматривается роль депозитов в структуре банковского капитала, их роль в обеспечении финансовой устойчивости банка, виды депозитов и стратегии их эффективного использования. В статье анализируется экономическое значение депозитов для банковской деятельности и их роль в экономике страны.

**Ключевые слова:** Капитал банка, депозиты, финансовая устойчивость, ликвидность, виды депозитов, банковские ресурсы, экономический анализ.



## THE PLACE OF DEPOSITS IN BANK CAPITAL

**Abstract:** This article discusses the role of deposits in the structure of bank capital, their role in ensuring the financial stability of the bank, types of deposits and strategies for their effective use. The article analyzes the economic importance of deposits for banking activities and their role in the national economy.

**Keywords:** Bank capital, deposits, financial stability, liquidity, types of deposits, bank resources, economic analysis.

### KIRISH.

Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning barqaror ishlashi uchun kapital manbalari, ayniqsa, depozitlarning roli katta ahamiyatga ega. Depozitlar banklarning kreditlash imkoniyatlarini oshirish bilan birga, iqtisodiyotda investitsiya hajmini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Banklar depozitlarni jalb qilish orqali aholining jamg‘armalarini moliyaviy tizimga yo‘naltiradi va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ushbu maqola bank kapitalida depozitlarning tutgan o‘rnini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bank kapitali va depozitlar mavzusi yuzasidan ko‘plab iqtisodiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Mishkin (2007) o‘zining "Financial Markets and Institutions" asarida depozitlarning banklar uchun moliyaviy barqarorlik va likvidlikni ta’minlashdagi asosiy manba ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Levine (1997) moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, depozitlarning milliy jamg‘armalarni iqtisodiy samaradorlik bilan yo‘naltirishdagi o‘rnini ko‘rsatib o‘tgani. O‘zbekiston sharoitida depozitlarning ahamiyati O‘zbekiston respublikasi Markaziy banki va boshqa tijorat banklarining yillik hisobotlari orqali yoritilgan bo‘lib, ularning tahlili banklarning resurs bazasida depozitlarning ulushi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.



## Depozit o‘zi nima?

Depozitlar – bu mijozlar tomonidan bankka saqlash uchun topshirilgan mablag‘lar bo‘lib, ular bankning asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi. Depozitlarning turli shakllari mavjud bo‘lib, ular mijozlarning ehtiyojlari va maqsadlariga qarab farqlanadi. Quyida depozitlarning asosiy turlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

**Talab qilib olinguncha depozitlar (Current Account Deposits)** – Bu turdagи depozitlar mijoz tomonidan istalgan vaqtda bankdan qaytarib olinishi mumkin.

Xususiyatlari:

- muddati cheklanmagan.
- past foiz stavkasi yoki foizsiz bo‘ladi.
- odatda to‘lovlarni amalga oshirish, mablag‘larni o‘tkazish va boshqa kunlik operatsiyalar uchun ishlatalidi.

Kimlar uchun mos?

Korxonalar, tadbirkorlar va muntazam to‘lovlар amalga oshiradigan shaxslar.

**Muddatli depozitlar (Time Deposits)** - Muddatli depozitlar bankda ma’lum bir muddatga saqlanadigan mablag‘lardan iborat bo‘lib, muddati tugagandan keyin chiqarib olinadi.

Xususiyatlari:

- yuqori foiz stavkasi taklif etiladi.
- muddati belgilangan (3 oy, 6 oy, 1 yil va hokazo).
- muddati tugaguncha mablag‘ni chiqarib olish uchun jarima qo‘llanilishi mumkin.

Kimlar uchun mos?

Mablag‘larini uzoq muddat saqlashni maqsad qilgan jamg‘armachi mijozlar.

**Jamg‘arma depozitlari (Savings Deposits)** - Bu turdagи depozitlar asosan



jismoniy shaxslar tomonidan jamg‘armalarni saqlash uchun ishlatiladi.

Xususiyatlari:

- o‘rtacha foiz stavkasi taqdim etiladi.
- mablag‘lar istalgan vaqtida qisman chiqarib olinishi mumkin.
- foizlar odatda oylik, choraklik yoki yillik hisoblanadi.

Kimlar uchun mos?

Shaxsiy jamg‘armalarni to‘plashni istagan oddiy fuqarolar.

Quyida respublikamiz tijarat banklari tomonidan 2020-2024 yillar davomida milliy valyutada jalb qilingan depozitlarning depozit turlari bo‘yicha ulushlarini ko‘rishimiz mumkin.

### **Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jalb qilingan depozitlar<sup>1</sup>**

**mlrd., so‘m**

Davr	Hammasi	shu jumladan:							
		jismoniy shaxslardan				yuridik shaxslardan			
		jami	shundan:			jami	shundan:		
			talab qilib olinguncha	jamg‘arma	muddatli		talab qilib olinguncha	jamg‘arma	muddatli
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2020-yil	1 735 931,5	229 088,6	210 902,4	6 979,5	11 206,6	1 506 843,0	1 336 122,7	142 723,4	27 996,9
2021-yil	2 567 152,4	368 122,5	338 413,5	8 257,1	21 451,9	2 199 029,9	1 913 273,8	239 026,7	46 729,4
2022-yil	3 738 723,6	671 362,7	618 213,8	13 433,3	39 715,6	3 067 360,8	2 638 871,8	381 687,1	46 801,9
2023-yil	4 481 692,0	989 268,5	897 927,2	21 982,9	69 358,3	3 492 423,5	3 059 147,0	366 692,5	66 578,3
2024-yil	5 022 529,5	1 171 840,3	1 067 246,6	20 965,3	83 628,4	3 850 689,2	3 374 646,1	387 705,1	88 337,8

<sup>1</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) Markaziy bank veb sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Bank kapitalida depozitlarning tutgan o‘rni bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilinadi:

1. **Bank kapitalining asosiy manbalari.** Bank kapitali aktsiyadorlar sarmoyasi, zaxiralar va depozitlardan tashkil topadi. Depozitlar, odatda, bank aktivlarining 60-80% qismini tashkil etadi, bu esa ularning bank uchun eng asosiy resurs ekanligini anglatadi.

2. **Depozitlarning iqtisodiy ahamiyati.** Depozitlar banklarga aholining jamg‘armalarini jalg qilish imkonini beradi va ularni kreditlash orqali iqtisodiyotga qayta yo‘naltiradi. Shuningdek, depozitlar uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish va infratuzilmanni rivojlantirishda asosiy o‘rin tutadi.

3. **Depozit turlarining bank faoliyatidagi o‘rni.** Muddatli depozitlar bankning barqarorligini ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatini beradi. Talab qilib olinadigan depozitlar esa likvidlikni ta’minalashda foydalaniladi. Valyuta depozitlari esa banklarning global moliyaviy operatsiyalarini kengaytiradi.

4. **Depozitlarning bank faoliyatiga ta’siri.** Depozitlarning miqdori va turlari bank faoliyatining rentabelligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, depozitlarning ko‘payishi bankning kredit portfeli hajmini oshiradi, bu esa iqtisodiy o‘sishga ijobjiy ta’sir qiladi.

### Xulosa.

**Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, depozitlar bank kapitalining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular bankning likvidligi, moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotga ta’sirini belgilaydi.** Depozitlarning samarali boshqarilishi banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Banklar depozitlarni jalg qilish strategiyalarini yanada rivojlantirish orqali nafaqat mijozlar ehtiyojlarini qondirishlari, balki o‘z faoliyatlarini yanada barqaror qilishlari lozim.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun. Toshkent, 2019-yil
3. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati haqida”gi Qonuni. Toshkent, 2019-yil
4. Mishkin, F. S. (2007). *Financial Markets and Institutions*. Pearson Education.
5. Levine, R. (1997). Financial Development and Economic Growth. *Journal of Economic Literature*.
6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)